



ABDULLA AVLONIY IJODI VA UNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Temirqulova Sarvinoz Ilhomovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti, Surdopedagogika yo`nalishi 202-guruh talabasi

Annotatsiya: O`shbu maqolada buyuk ma`rifatparvar davlat arbobi Abdulla Avloniyning hayot yo`li, ijodi, u yaratgan darsliklarning jamoatchilikka taqdim etilishi, uning pedagogik faoliyati, adabiyotga qo`shgan hissasi haqida ma`lumot berilgan. Bugungi kunda uning tarbiya bo`yicha fikr va mulohazalarining ahamiyati haqida ma`lumot berilgan.

Kalit so`zlari: Tarbiya, jadid, ma`rifat, axloq, darslik, muallim, maktab, vatan, ta`lim, jaholat, fikr tarbiyasi, ota- ona.

«Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir» degan so`zlari har bir maktab binosida yozib qo`yilishi shart», — deydi Shavkat Mirziyoyev

Abdulla Avloniy (12-iyul, 1878-yil, Toshkent — 25-avgust, 1934-yil, Toshkent) — XIX asr oxiri XX asr boshidagi o`zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma`rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi. Avloniy XX asr boshida jadidchilik harakatiga qo`shildi. Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida tanildi.¹ 1906-yildan she`rlari bilan matbuotda qatnasha boshlagan. Arab, fors, rus tillarini o`rganib, bu tillarda ijod qilgan mutafakkirlarning asarlarini o`qigan, ba`zilari (masalan, Lev Tolstoy, Konstantin Ushinskiy asarlari) ni o`zbek tiliga tarjima qilgan. 1906-yilda „Taraqqiy“, 1907-yilda o`z uyida „Shuhrat“ gazetalarini chiqargan. Bu gazetalar yopib qo`yilgach, 1908-yilda yashirin ravishda „Osiyo“ gazetasini nashr etdi. 6-sonidan so`ng hukumat bu gazetani ham taqiqlab qo`ygan. Avloniy birinchi bo`lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o`qitish taklifini beradi.

Ilg`or g`oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi. Toshkent shahrining Mirobod mahallasida mahalliy aholi bolalari uchun yangi usul maktabi ochib (1908), o`zi ona tili va adabiyotdan dars berdi. 1909-yilda „Jamiyati xayriya“ tuzib, yetim bolalarni o`qitgan. Shu yili „Adabiyot yoxud milliy she`rlar“ nomli to`rt qismdan iborat she`riy to`plamining birinchi juz`ini nashr ettirgan. 1912-yilda Avloniy Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochgan. Bu maktabda dunyoviy fanlar o`qitilishi bilan maktabxonalaridan farq qilgan.

Avloniy yangi maktablar uchun qo`llanma va o`qish kitoblar yozib, nashr qildirgan (masalan, „Birinchi muallim“, 1911; „Ikkinchi muallim“, 1912; „Turkiy guliston yoxud axloq“, 1913; 4 juzd (qism) li „Adabiyot yoxud milliy she`rlar“ to`plami,

¹ Abdulla Avloniy bilimlar.uz



1909—1915; „Maktab gulistoni“, 1915; „Mardikorlar ashuvlasi“, 1917 va boshqalar). Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo‘jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo‘jayev, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan birgalikda „Nashriyot“ (1914), „Maktab“ (1916) shirkatlarini tashkil etgan. Avloniy xalq ongini oshirish uchun teatr san‘atidan ham foydalangan. U 1913-yilda „Turkiston“ nomli teatr truppasini tashkil etishda va uning ishida faol qatnashgan. 1910—1916-yillarda bir qancha sahna asarlarini tarjima qildi va o‘zi sahnalashtirdi. Avloniyning sahna asarlari Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Qo‘qon, Xo‘jand kabi shaharlarda qo‘yilgan. Bu asarlarda XX asr boshlaridagi Turkiston hayotining keng manzaralari o‘z ifodasini topgan. Avloniy truppasida Mannon Uyg‘ur tarbiya topgan; truppa bilan Hamza, Ozarbayjon dramaturglari Uzayr Hojibekov, Ruhullo hamkorlikda bo‘lgan. Oktyabr inqilobidan keyin xalqqa va‘da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida tushkunlikning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Avloniy 1917-yilda „Turon“ gazetasini nashr qildi. Gazetasida siyosiy va ijtimoiy voqealar yoritilgan. 1918-yilda Avloniy „Ishtirokiyun“ gazetasini tashkil etishda qatnashdi va uning muharriri bo‘ldi. 1919—1920-yillarda Sho‘ro hukumatining Afg‘onistondagi siyosiy vakili va konsuli, Afg‘oniston xalq ta‘limi vaziri, „Kasabachilik harakati“ jurnali bosh muharriri (1921). 1921-yildan Avloniy maktablar ochish, xalqni savodxon qilish, o‘zbek xotin-qizlarini o‘qitish, o‘qituvchilar va ziyoli kadrlar tayyorlash ishlari bilan shug‘ullandi. U 1923—1924-yillarda Eski shahardagi xotin-qizlar va erlar maorif bilim yurtlarida mudir, 1924—1929-yillarda Toshkent harbiy maktabida o‘qituvchi, 1930—1934-yillarda O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)da til va adabiyot kafedrasini mudiri, professori. Shu davrda u o‘zbek maktablarining 7-sinfi uchun „Adabiyot xrestomatiyasi“ tuzib, nashr ettirdi (1933).

Avloniy 1895-yildan Hijron, Nabil, Indamas, Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chig‘aboy, Abdulhaq taxalluslari bilan tanqidiy va ilmiy maqola, 4000 misradan ortiq she‘r ijod qilgan. O‘zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya‘ni bola tarbiyasining fanidir», deb ta‘rif berdi. Tabiiy bunday ta‘rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi: 1. «Tarbiyaning zamoni». 2. «Badan tarbiyasi». 3. «Fikr tarbiyasi». 4. «Axloq tarbiyasi» haqida hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi. «Tarbiyaning zamoni» bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota - ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta‘kidlaydi. «Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir» deb ta‘kidlaydi, Avloniy. Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq, deb hisoblaydi adib.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa



Xanjar, olmosday bo'lar o'tkir

Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan - uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Mutafakkirning pedagogik qarashlarida aql va ilmning yuksak darajada ulug'lanishi insonni ulug'lash bilan chambarchas bog'lanadi. Chunki Alloh insoniyatni hayvon va boshqa jonzotlardan farqli o'laroq aqlli va ilmi qilib yaratdi. Insonlar ana shu ikki narsa tufayli ikki dunyo saodatiga erishadi. Adibning aqlga bergan ta'rifi juda go'zaldir: "Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. Janobi Haq insonni hayvondan so'z va aql ila ayirmishdur. Rasuli akram nabiiyyi muhtaram afandimiz: "Ey insonlar, Aqlingizga tavoze' qilingiz. Siz janobi Haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz", -demishlar". "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida muallif yomon xulqlarni shunday ta'riflaydi: "Saodati abadiyadan mahrum qiladigan, Janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo'lgan axloqi zamimalar". Ushbu asarning "yomon xulqlar" qismida bir bob "Jaholat" va "Aqsoni jaholat" deb nomlanadi. Jaholat ilmsizlik, nodonlikdan kelib chiqadi. U odamlarning eng ashaddiy dushmanidir.

Uning pedagogik qarashlari asosida maktab va oliy ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida interaktivlik, faollik, o'zaro hurmat va tarbiya masalalariga o'z yechimini topadi. Abdulla Avloniy yozgan bir qancha pedagogik asarlarida ham tarbiya va odob-axloq tamoyillari va ta'lim sohasiga jiddiy etibor beradi.

Jaholat nodonlikdan, ilmsizlikdan hosil boladi. Insoniyatning eng gaddor dushmani jaholatdir. Asar muallifi jaholatni ikki qismga ajratadi: biri «jahli bosit» («oddiy jaholat»), ikkinchisi «jahli murakkab». «Jahli bosit» kasaliga muhtalo bolganlari biror narsani bilmaydilar va bilmasliklarini etirof etadilar. Bularning avomi nisbatan oson, ularni oqitish, orgatish bilan bu maarazdan foruh qilish mumkin kabi bir qancha odob-axloq masalalariga o'z asarlarida jiddiy e'tibor qaratgan.

Avloniy Toshkentda 1934-yil 25-avgustda 56 yoshida vafot etgan va Botkin ko'chasidagi qabristoniga dafn qilingan. Avloniy qatag'on qilinmagan, xalq dushmani sifatida qoralanmagan bo'lsa-da, lekin 1966-yilgacha uning ijodi o'rganilmagan. O'limidan so'ng asarlari chop etilmagan. Uning ijodini Begali Qosimov tadqiq etgan va „Abdulla Avloniy“ asarini yozgan. 1968-yilda Avloniy yodgorlik uy-muzeyi tashkil etilgan. Toshkentda Avloniy nomidagi ko'cha, 2 ta mahalla, madaniyat uyi, miliy-tadqiqot intituti mavjud. 2019-yilda Avloniyning Afg'onistondagi missiyalari tog'risida hikoya qiluvchi „Avloniy“ filmi premyerasi bo'lib o'tgan. Shoir Muhammad Ali o'zining „Boqiy dunyo“ (1979) she'riy romanida Abdulla Avloniyning asar qahramonlaridan biri sifatida tasvirlagan. Toshkentdagi Adiblar xiyobonida Avloniy haykali o'rnatilgan.



Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Abdulla Avloniy xalqni ma`rifatli qilishni o`zining asosiy maqsadi deb bildi. Shu oliy maqsad yo`lida har qanday qiyinchiliklarni yengib o`tdi. Bizga ulkan ilmiy va tarbiyaviy meros qoldira oldi. O`z asarlarida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota - ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi. «Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir» deb ta`kidlaydi. Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo`lishi avlodlar tarbiyasiga ko`p jihatdan bog`liq, deb hisoblaydi adib. Bu fikrlar bugungi kunda ham ahamiyatlidir. “Ko`pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o`ylayman: mamlakatimizda uchinchi renessansni XX asrda ma`rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Ular “Ilmdan boshqa najot yo`q va bo`lishi ham mumkin emas”, degan hadisi sharifni hayotiy e`tiqod deb bildilar”, – deya ta`kidladi Prezident.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san`at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz
1. ma`naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so`zi”, 2017- yil 4-avgust .
2. Shavkat Mirziyoyev. O`qituvchi va murabbiylar – yangi O`zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O`qituvchi va murabbiylar kuniga bag`ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi,” Xalq so`zi”, 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik Toshkent “Ma`naviyat” 2006.
4. Dolimov, U. Abdulla Avloniy-milliy uyg`onish davri o`zbek pedagogikasining asoschisi.
5. Abdulla Avloniy. Toshkent tongi. T., G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 1979.
6. N. To`xliyev va boshqalar. Toshkent ensiklopediyasi. Toshkent: „O`zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2009 — 784 bet.
7. Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy. „Zabarjad media“, 2022 — 432 bet.